

REVERSIV FAKTORING XIZMATLARINI KO'RSATISH DOIRASIDA

BOSH KELISHUV № _____

« ____ » _____ 20__ yil

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda "Moliya agenti" deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi _____ -sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi/BXO boshlig'i _____ bir tarafdin va (bundan buyon matnda «Mijoz»(Qarzdor) deb yuritiluvchi) _____ ikkinchi tarafdin, ushbu bitimni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 354-moddasida belgilangan shartnoma tuzish erkinligi prinsipiga asoslanib (bundan buyon matnda bitim deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Kelishuv predmeti

1.1. Mazkur kelishuvga muvofiq Moliya agenti Mijozga ____ (_____) oy muddatga _____ (_____) so'mgacha bank faktoring siyosati va tartiblariga muvofiq kelgan holda limit taqdim qiladi, Mijoz esa limit miqdoridan kelib chiqib, bank faktoring siyosati, amaldagi tartiblari va faktoring amaliyotlarini tartibga soluvchi ichki qoidalari doirasida ajratilayotgan faktoringni ta'minot bilan ta'minlash, limit bo'yicha olinishi nazarda tutilgan mablag'larni bosh kelishuvga asosan tuzilgan uch taraflama faktoring shartnomasida (keyingi o'rinlarda faktoring) nazarda tutilgan muddatlarda qaytarish, ular bo'yicha xizmat ko'rsatilganlik uchun haq to'lash, shuningdek, shartnomalar asosida vujudga keladigan boshqa to'lovlarni (neustoyka) to'lash, majburiyatlarni bajarish va huquqlardan foydalanish tartibini belgilaydi.

1.2. Bosh kelishuvga asosan tuzilgan faktoring shartnomalari mazkur kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.3. Mijoz (qarzdor) tomonidan ushbu bosh kelishuv va bosh kelishuv limiti doirasida tuziladigan uch taraflamalik faktoring shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun Mijoz (qarzdor) va/yoki uchinchi shaxslar quyidagi ta'minotlarni taqdim etadi:

1.4. Mijoz (qarzdor) tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun Mijoz (qarzdor) va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan ta'minotlar ushbu bosh kelishuv limiti doirasida tuziladigan bir yoki bir nechta uch taraflamalik faktoring shartnomalari uchun ham ta'minot hisoblanadi va ushbu bosh kelishuv doirasida tuziladigan barcha faktoring shartnomalari bo'yicha Mijoz (qarzdor)ning majburiyatlari(asosiy qarzdorlik(muddatli va muddati o'tkan), diskont, neustoyka, ijroni kechiktirib yuborish natijasida yetkazilgan zarar, shuningdek garovga oluvchining garovga qo'yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari) to'liq bajarilguniga qadar majburiyatini ta'minlash vositasi hisoblanadi.

Ushbu qoidalar garov shartnomasi yoki kafillik va yoki sug'urta shartnomasi tuzilgan taqdirda ushbu shartnomalarda aks ettirilishi haqida taraflar ushbu shartnomani imzolash orqali rozilik berganliklarini tasdiqlaydilar.

Umumiy qoidalar

1.5. Ushbu Kelishuv Moliya agenti va Mijoz o'rtasida Reversiv faktoring modelini amalga oshirishning umumiy qoidalari va prinsiplarini belgilaydi.

1.6. Reversiv faktoring modeli quyidagi zanjirni ko'zda tutadi: Mijozning kreditori (bundan

buyon matnda maxsulot yetkazib beruvchi deb yuritiladi) Moliya agentiga Faktoring xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan ariza bilan murojaat qiladi va Moliya agenti ushbu murojaatga asosan Yetkazib beruvchilar va Mijozni bank ichki qoidalariga asosan o'rganib chiqib, bank faktoringni tartibga soluvchi ichki tartib qoidalariga va amaldagi qonunchlik hujjatlariga muvofiq kelgan holda Moliya agenti, Mijoz va uning yetkazib beruvchisi bilan uch taraflama Faktoring shartnomasi yoki shartnomalarini tuzadi.

1.7. Moliya agenti faqat Mijoz va uning yetkazib beruvchisi tomonidan tasdiqlangan, puli to'lanmagan va muddati o'tmagan, amaldagi qonunchlik hujjatlari va bank ichki qoidalarida taqiqlanmagan pul talablarini moliyalashtiradi.

1.8. Ushbu Kelishuv Moliya agentiga Yetkazib beruvchilarni moliyalashtirish bo'yicha majburiyat yuklamaydi. Bunda Mijoz (Qarzdor)ga limit belgilanganidan so'ng Mijoz (Qarzdor) tomonidan online platforma orqali Moliya agentiga yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnoma, hisob faktura va boshqa zaruriy hujjatlar taqdim etishi mijozning arizasi (buyurtmanomasi) deb hisoblanishiga taraflar kelishadilar va tasdiqlaydilar. Har bir moliyalashtirish fakt bo'yicha Mijozning tasdig'i va Moliya agentining ichki qoidalarida belgilangan tartib va qoidalariga tog'ri kelgan holda amalga oshiriladi. Moliya agentining ichki qoidalarida belgilangan tartib va qoidalariga tog'ri kelmagan holda moliyalashtirish rad etilishi mumkin. Bu tog'risida Mijoz (Qarzdor) xabardor etiladi.

1.9. Moliya agenti Mijoz (Qarzdor) uchun faktoring bo'yicha umumiy limit belgilanidan so'ng Mijoz (Qarzdor) ushbu limit doirasida o'z majburiyatlarini va unga taqdim etilgan hisob-fakturalarni Moliya agenti tomonidan to'lov qilishlik uchun cheklovlar mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlarni **ONLINE platformaga** joylashtirilishiga va u yerda ochiq ko'rinishda bo'lishligiga o'zining so'zsiz roziligini bildiradi.

1.10. Mazkur kelishuvga asosan Moliya agenti tomonidan kelishuvning 1.1-bandida ko'rsatilgan miqdorgacha Mijoz yetkazib beruvchisining faktoring xizmatlarini ajratilishini so'rab qilgan arizasiga asosan bank faktoring siyosati va ichki qoidalarida belgilangan maqsadlar uchun va to'lov qobiliyatidan kelib chiqib, tegishli tartibda o'rganib chiqadi.

1.11. Bunda Mijozga va uning yetkazib beruvchilariga faktoring xizmatlarini ko'rsatish ushbu bosh kelishuvda belgilangan limit doirasida bank faktoring siyosati va amaldagi tartiblariga muvofiq qonunchlik hujjatlarida belgilangan asoslarda va tartibda amalga oshiriladi.

1.12. Ajratiladigan faktoring mablag'lari mazkur bitimga asosan qiymatidan kelib chiqib, liniya doirasida har biri uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan uch taraflamalik shartnoma tuzish orqali taqdim qilinadi.

1.13. Bosh kelishuvga asosan o'rnatilgan limit doirasida faktoring xizmatlaridan foydalanish muddati shartnoma imzolangan sanadan boshlab bosh kelishuv tugashiga _ () oy qolguncha, ya'ni _____ yilgacha amal qiladi. Bu muddat tugaganidan so'ng, ya'ni _____ yil kuni ushbu kelishuvda belgilangan limit o'z kuchini yo'qotadi.

1.14. Faktoring shartnomalar asosida har bir faktoring xizmati alohida ssuda hisob raqamlar ochish orqali amalga oshiriladi hamda Mijozning kreditori, ya'ni mahsulot yetkazib beruvchisi tomonidan taqdim qilingan to'lov topshiriqnomasi va qonunchilikda, ushbu shartnoma va uch taraflamalik shartnomalarida belgilangan asoslarda va shartlarda pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi. Bunda bosh kelishuv doirasida faktoring shartnomasiga asosan ajratiladigan mablag'larni so'ndirish muddati har biri uchun alohida tuzilgan faktoring shartnomalarida belgilanadi. Mijoz (Qarzdor) ushbu uch taraflamalik tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartibda pul mablag'larini Moliya agentida to'lab beradi.

1.15. Faktoring xizmatlarini ko'rsatish bank faktoring siyosati va ichki hujjatlarga rioya qilgan

holda amalga oshiriladi.

1.16. Faktoring bo'yicha pul mablag'lari Moliya agentining o'z mablag'lari yoki xorijiy liniya mablag'lari hisobidan beriladi.

1.17. Mijoz tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun Mijoz va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan bank faktoring siyosati talablari doirasida ta'minot taqdim etadi.

1.18. Bosh kelishuvga asosan tuzilgan faktoring shartnomasi yoki shartnomalari mazkur kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi hamda har bir beriladigan faktoring bo'yicha pul miqdori va bahosi Faktoring shartnomasiga asosan belgilanadi.

1.19. Taraflarning pul mablag'larini qaytarilishi bilan bog'liq huquq va majburiyatlari, ushbu kelishuv bilan tartibga solinmagan boshqa shartlar ushbu kelishuvda ko'rsatilgan Moliya agenti, Mijoz(Qarzdor), uning yetkazib beruvchisi bilan tuziladigan uch taraflama shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.20. Mijoz(qarzdor) ushbu bosh kelishuv va unga asosan tuziladigan uch taraflamalik faktoring shartnomalarida nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq bajarishga javobgardir. Ushbu majburiyatlar Mijoz (qarzdor) tomonidan bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi shartnomalarning jiddiy buzish deb hisoblanadi

2. Mijoz (qarzdor) va Moliya agentining huquq va majburiyatlari

3.1. Mijoz (qarzdor) quyidagi huquqlarga ega:

- 3.1.1. garov ta'minoti yuzasidan baholovchi va sug'urta kompaniyasini o'z ixtiyoriga asosan tanlash;
- 3.1.2. faktoringni so'ndirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Moliya agentining mansabdor shaxslariga murojaat qilish, shuningdek, bitim va faktoring shartnomalarni imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketish;
- 3.1.3 shartnoma tuzilgandan keyin va pul mablag'lari olingunga qadar bo'lgan davrda faktoring olishdan bepul asosda voz kechish;
- 3.1.6 istalgan vaqtda jarima sanksiyalarsiz faktoringni to'liq yoki qisman muddatidan oldin so'ndirish.
- 3.1.7 Mijoz(qarzdor)tomonidan faktoring qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan uning qolgan qismi uchun qayta yangi grafik shakllantirishni talab qilish. Bunda, faktoringni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan faktoringni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.
- 3.1.8 faktoring ajratish jarayoni yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to'g'risida Moliya agentidan maslahatlar olish;
- 3.1.9 Moliya agentidan bitimda belgilangan shartlar asosida belgilangan miqdorda faktoring mablag'ini o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;
- 3.1.10 Moliya agenti tomonidan bitimda ko'zda tutilgan faktoring uzrli sabablarsiz yoki kechiktirib ajratilgani uchun neustoyka to'lashni talab qilish;
- 3.1.11 hisob raqamidagi aylanmalar to'g'risida ma'lumotlar olish;
- 3.1.11 qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash.

3.2 Mijoz(qarzdor) majburiyatlari quyidagilar:

3.2.1 Ajratilgan Faktoring va unga ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqni mazkur ushbu kelishuv doirasi tuziladigan uch taraflamalik shartnomaning ajralmas qismi sifatida ilova qilingan qaytarish jadvaliga asosan to'lash, ushbu kelishuv doirasida tuziladigan uch taraflamalik faktoring shartnomalarida belgilanadigan majburiyatlarini to'liq bajarish;

- 3.2.2 Faktoring olishga va undan foydalanishga bevosita aloqador bo'lgan moliyaviy hisobotlar, shartnomalar va boshqa hujjatlar bilan Moliya agentining to'siqsiz tanishishiga imkon berish;
- 3.2.3 Moliya agentiga to'lov muddati kelganda o'zining barcha (har qanday) hisobvaraqlaridan oldindan berilgan aksept bilan to'lov hujjati (to'lov talabnomasi yoki memorial order va yoki qonunchilikda taqiqlanmagan va belgilangan usullar orqali) orqali shartnomadan kelib chiqadigan har qanday majburiyatlarni to'lash uchun pul mablag'larini hisobdan chiqarish huquqini berish (neustoyka ham shular jumlasidan). Mazkur shart Mijoz (qarzdor)ning har qanday hisobvarag'idan pul mablag'larini hisobdan chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- 3.2.4 o'zining mulkchilik yoki tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi, ta'sischilar, boshqaruv organlaridagi tarkibiy o'zgarishlar, qayta tashkil etilishi yoki faoliyatining to'xtatilishi, shuningdek, joylashgan manzilining o'zgarishi, faoliyat yuritishi uchun ta'sir etuvchi litsenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarining bekor qilinganligi, amal qilish muddatlari tugaganligi, to'xtatilganligi, aloqa o'rnatishda foydalanadigan aloqa ma'lumotlari hamda aloqa usullarining o'zgarishi haqida Moliya agentini 10 kun avval yozma ravishda xabardor qilish;
- 3.2.5 o'zining moliyaviy yoki mol-mulkiga oid holatini yomonlashtiradigan, to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan faktlar, shuningdek, ko'rsatilgan holatlarni bartaraf etish uchun ko'rilayotgan choralar haqida Moliya agentiga zudlik bilan yozma shaklda xabar berish;
- 3.2.6 begonalashtirilayotgan mol-mulk qiymati o'zining aktivlari balans qiymatining 25 foizdan ortiq bo'lgan va o'ziga egalik huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk boshqa shaxsning ixtiyoriga o'tayotgani haqida Moliya agentini oldindan yozma shaklda xabardor qilish;
- 3.2.7 Moliya agentini ochiladigan barcha hisobvaraqlari va boshqa faktoring tashkilotlaridan jalb qilinayotgan faktoringlari haqida tegishli holat ro'y berishidan va/yoki tegishli harakat amalga oshirilishidan 5 ish kuni oldin xabardor qilish;
- 3.2.8 Moliya agentiga balans manbalari ko'rsatilgan va tegishli ma'lumotnomalar bilan birga moliyaviy va statistik hisobotlarni muntazam ravishda taqdim etish;
- 3.2.9 Moliya agentining so'roviga ko'ra, Moliya agenti Mijoz (qarzdor)ning moliyaviy holatidan kelib chiqib talab qilishi mumkin bo'lgan barcha zarur ma'lumot va hujjatlarni, shartnoma va yoki kontraktdagi majburiyatlarini bajarganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (shartnoma, hisobvaraq faktura, yuk xati, bojxona yuk deklaratsiyasi va boshqalar) belgilangan muddatlarda Moliya agentiga taqdim etilishini ta'minlash, shuningdek, 5 ish kuni davomida faktoring to'lovlarini vaqtida va to'laligicha to'lashga ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar haqida Moliya agentini xabardor qilish;
- 3.2.10 Ushbu bosh kelishuv imzolangan sanadan 2 ish kundan kechikmasdan:
- Faktoring ta'minoti sifatida garovga qo'yish uchun *{ko'char yoki ko'chmas mulk}*ka tegishli zarur hujjatlarni Moliya agentiga taqdim etish yoki ularni uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilishini ta'minlash;
 - o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun garov/ipoteka haqida shartnoma tuzish yoki shartnoma tuzishni ta'minlash;
 - ushbu kelishuvga asosan faktoring ta'minotiga oid barcha talablarni bajarish, jumladan, faktoring ta'minoti sifatida taqdim qilinayotgan mol-mulklarni (yoki mulkiy huquqlarni) faktoring muddatiga sug'urta qilish, garov shartnomalarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish, vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tkazish hamda taqiq qo'yish yoki ta'minot sifatida kafillik taqdim qilinayotgan bo'lsa, kafillik

shartnomalarini qonuniy tartibda rasmiylashtirish;

d) ipoteka shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha barcha harakatlarni amalga oshirishda Moliya agentiga barcha zaruriy yordamni ko'rsatish (barcha zarur hujjatlarni taqdim etish ham shu jumladan);

e) milliy valutada ajratilgan faktoringlar uchun 125 foizdan, xorijiy valutada ajratilgan faktoringlar uchun 130 foizdan kam bo'lmagan qiymatdagi likvidli bo'lgan ta'minot turlarini taqdim qilish. Moliya agenti tomonidan monitoring, undiruv davomida yoki boshqa sabablarga ko'ra Mijoz (qarzdor) tomonidan taqdim qilingan ta'minot faktoring majburiyatlarini qoplashga yetarli emas deb topilgan taqdirda yetarlicha miqdorda qo'shimcha ta'minot taqdim qiladi hamda uni tegishli tartibda garov shartnomasini va yoki unga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirilishini ta'minlaydi;

f) faktoringlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilish majburiyatini oladi, shu jumladan:

a) ish joyidagi xavfsizlik normalari;

b) bolalar mehnatining yo'qligi;

c) ishchilar bandligiga oid kamsitishlarning yo'qligi;

d) majburiy mehnatning yo'qligi.

- 3.2.11 faktoring mablag'i hisobiga sotib olingan asosiy vosita, agar faktoring shartnomasida faktoring ta'minoti sifatida taqdim etish nazarda tutilgan bo'lsa, Mijoz (qarzdor) nomiga rasmiylashtirilgandan so'ng 10 bank ish kuni davomida ajratilgan faktoring ta'minoti sifatida garovga qo'yilishini ta'minlash;
- 3.2.12. Mijoz (qarzdor)ning xorijiy valutada faktoring olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valutada olingan faktoring bo'yicha milliy valutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar Mijoz (qarzdor)ning tavakkalchiligi hisoblanadi.
- 3.2.15. Mijoz (qarzdor) o'z mablag'lari (kapitali) kamayishiga olib keladigan operatsiyalarni (dividend to'lash, ustav kapitalini kamaytirish va boshqalar) Moliya agenti bilan kelishganidan so'nggina amalga oshiradi.
- 3.2.14 Agar xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan kursi oshishi natijasida taqdim etilgan ta'minot majburiyatlarni to'liq qoplash uchun yetarli emas deb topilsa, Mijoz (qarzdor) o'z majburiyatini to'liq qoplashga yetarli miqdorda qo'shimcha ta'minot taqdim etadi va belgilangan tartibda Moliya agenti bilan garov (zarur hollarda Moliya agenti talabiga ko'ra, sug'urta yoki kafillik taqdim etish) shartnomasini rasmiylashtiradi.
- 3.2.15. Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasining summasini to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish (Moliya agentiga boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan talabnomani Kontrakt bo'yicha kechiktirish muddati tugashidan oldin to'lash)
- 3.2.16. kelajakda bevosita yoki bilvosita boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining parametrlari va shartlariga, shu jumladan Pul talabnomasining miqdoriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan Kontrakt shartlariga Moliya agentining yozma roziligisiz o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritmaslik.
- 3.2.17. uning to'lov qobiliyatiga nisbatan salbiy holatlar yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lamaslikka olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar to'g'risida Moliya agentiga zudlik bilan xabar berish.

- 3.2.18. Kontrakt va ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining aniq va qat'iy bajarilishini ta'minlash.
- 3.2.19. Moliya agentining talabiga binoan, unga mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni yuborish, unga ko'ra Moliya agenti Mijoz bilan tijorat munosabatlarining holatini kuzatishi mumkin.

3.3. Moliya agenti quyidagi huquqlarga ega:

- 3.3.1. Mijozga faktoring summasidan moliyalash summasini taqdim etish;
- 3.3.2. Faktoringni so'ngirish uchun to'lovni Qarzdorning to'lov topshiriqnomasi yoki muddati kelganda Moliya agenti tomonidan mustaqil holda memorial orderi orqali yechib olish.
- 3.3.3. Uch taraflamalik Shartnoma yoki shartnomalarning ilovalari barcha tomonlar tarafidan imzo/akseptlanmagan holda, faktoring bo'yicha mablag'larni o'tkazmaslik;
- 3.3.4. Mijozdan pul talabnomasining haqiqiylikini tegishli hujjatlar asosida isbotlab berishni talab qilish;
- 3.3.5. Qarzdor tomonidan to'lov talabnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda Qarzdorga nisbatan amaldagi qonunchilikka asosan da'vo qo'zg'atish;
- 3.3.6. Moliya agentiga pul talabnomasini topshirish huquqi berilgandan so'ng, Qarzdor bu huquqni bajarmaslikka haqli bo'ladigan vaziyatlardan bexabar bo'lsa, boshqa shaxs foydasiga voz kechish narsasi bo'lgan pul talabnomasiga nisbatan huquqini saqlab qolish;
- 3.3.7. Mijozni va Qarzdorni lozim darajada tekshirish bilan bog'liq bo'lgan to'liq yoki qisman xorijiy tilda tuzilgan hujjatlar davlat tiliga yoki rus tiliga tarjimai bilan talab qilish, gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar alomatlari mavjud operatsiyalar bajarilganda operatsiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni, jumladan pul mablag'lari manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yuzasidan Mijozga murojaat qilish hamda taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'riligiga gumon yoki boshqa zarurat paydo bo'lgan taqdirda, tanishish uchun hujjatlarning asl nusxalari taqdim qilinishini talab qilish;
- 3.3.8. Qarzdor yoki Mijozlarni ogohlantirmasdan pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqini boshqa shaxslarga har qanday usulda o'tkazish;
- 3.3.9. Mazkur shartnomada belgilangan to'lovlar o'z vaqtida to'liq amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilayotgan mablag'larni Qarzdordan akseptsiz talabnoma qo'yish orqali undirish shu bilan birga barcha undirish choralari ko'rishga haqli;
- 3.3.10. Mijoz(qarzdor)va yoki uning yetkazib beruvchisi tomonidan atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda, Mijoz(qarzdor)va yoki uning yetkazib beruvchisi joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha o'rganish, yuridik shaxs Mijoz va Qarzdorning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'lmaganida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda faktoring amaliyotini to'xtatib qo'yish.
- 3.3.11. Shartnomaga asosan yon berilgan talabnomalar (hisob faktura va b.) bo'yicha ma'lumotni (xabarnoma va/yoki bildirishnoma)larni garov reestriga kiritish.
- 3.3.12. Mijoz(Qarzdor) mazkur bosh kelishuv yoki uning ajralmas qismi bo'lgan uch taraflamalik faktoring shartnomasi(lari)da ko'rsatilgan majburiyatlarini 60 (oltmish) kun davomida bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida ushbu bosh kelishuv doirasidagi jami qarzdorlik (muddatli va

muddati o'tkan)summalarini muddatidan oldin undirish va undiruvni garovdagi mulkka, ta'minotlarga qaratish yuzasidan sudga murojaat qilishga haqli. .

3.3.13. Mijoz (Qarzdor) tomonidan ushbu bosh kelishuv va uning doirasida tuziladigan barcha uch taraflamalik faktoring shartnomalaridagi o'z majburiyatlarining bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi bu shartnomaning jiddiy buzilishi hisoblanadi, bunda Moliya agenti bajarmaganida jami qarzdorlik (muddatli va muddati o'tkan)summalarini muddatidan oldin undirish va undiruvni garovdagi mulkka, ta'minotlarga qaratish yuzasidan sudga murojaat qilishga haqli.

3.4. Moliya agentining majburiyatlari quyidagilar:

3.4.1. Pul mablag'larini mazkur shartnoma bo'yicha huquqlar vujudga kelgandan so'ng hamda vujudga kelgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar Mijoz(qarzdor)ning yetkazi beruvchisi tomonidan uch taraflamalik faktoring shartnomasida nazarda tutilgan tartibda taqdim qilingach 5 (besh) bank ish kuni davomida Mijozning talab qilib olguncha depozit hisob raqamiga o'tkazib berish;

4. Tasdiqlash va kafolatlar berish

- 4.1. Mijoz(Qarzdor) yuridik shaxs – tadbirkorlik subyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro'yxatdan o'tkazilgan, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy layoqatga ega. Ushbu kelishuvni tuzish uchun barcha zaruriy ruhsatlar va roziliklar olinganligiga kafolat beradi.
- 4.2. Mijoz(Qarzdor) Moliya agentiga taqdim etgan faktoring olish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy hujjatlar haqiqiyliги, ma'lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to'g'riligini kafolatlaydi.
- 4.3. Mijoz(Qarzdor) mazkur bitim tuzilayotgan sanaga qadar bo'lgan va mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi majburiyatlari haqidagi ma'lumotlarni Moliya agentiga taqdim etadi.
- 4.4. Mijoz(Qarzdor) bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkonini bermaydigan va Moliya agnetiga ma'lum qilmagan sud ishlarida da'vogar, javobgar yoki uchinchi shaxs sifatida ishtirok etmaydi.
- 4.5. Bitim tuzayotgan Mijoz(Qarzdor) xato fikrlar, yolg'on, zo'ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og'ir holatlarga to'g'ri kelib qolishi ta'sirida emas.
- 4.6. Tasdiqlash va kafolatlar berishga Mijoz(Qarzdor) to'liq hajmda amal qilishi lozim. Bitimda ko'zda tutilgan tasdiqlash va kafolatlar berishga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda Moliya agenti Mijozga faktoring xizmatlarini taqdim etishdan bosh tortishga haqli.
- 4.7. Mijoz (Qarzdor) Moliya agenti tomonidan moliyalashtiriladigan har bir pul talabnomasi bo'yicha quyidagilarni kafolatlaydi:
- 4.8. Qarzni tan olish xati: Mijoz (Qarzdor) har bir faktura bo'yicha Moliya agenti oldida qarzdor ekanligini tasdiqlovchi, muhr va imzo bilan tasdiqlangan "Qarzni tan olish xati"ni (yoki platformadagi elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan ekvivalentini) taqdim etadi.
- 4.9. Haqiqiylik kafolati: Mijoz (Qarzdor) taqdim etilgan pul talabnomalarining haqiqiyligini, yolg'on (fiktiv) qarzdorlik mavjud emasligini va ushbu qarzlar uchinchi shaxslarga garovga berilmaganligini kafolatlaydi.
- 4.10. Cheklovlar yo'qligi: Mijoz (Qarzdor) ushbu qarzlar bo'yicha to'lovni amalga oshirishga nisbatan qonunchilikda yoki uchinchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarda hech qanday cheklovlar mavjud emasligini tasdiqlaydi.
- 4.11. Mijoz (Qarzdor) ushbu Kelishuv doirasida yuzaga keladigan barcha majburiyatlar bo'yicha to'lov

muddati kelganda, Moliya agentiga uning barcha bank hisobvaraqlaridan (shu jumladan, boshqa banklardagi hisobvaraqlaridan ham) mablag'larni akseptsiz (so'rovsiz) yechib olish (inkasso topshiriqnomasi yoki memorial order orqali) huquqini beradi va Mijoz (Qarzdor) ushbu huquqni qonunchilikda taqiqlanmagan usullar bilan amalga oshirilishiga va ushbu jarayonga nisbatan hech qanday e'tiroz bildirmasligiga rozilik beradi.

- 4.12. Mijoz bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XV bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda mijozning yuridik manzili _____, telefon raqami: _____ (vakilning uyali aloqa raqami).
- 4.13. Moliya agneti bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish

- 5.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu bitim shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.
- 5.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu bitim shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.
- 5.3. Agar bitim taraflarida ushbu bitim shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.
- 5.4. Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.
- 5.5. Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini bitim shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

6. Boshqa shartlar

- 6.1. Mijoz (Qarzdor) faktoring majburiyatlarini bajarishni ta'minlash uchun qilingan barcha xarajatlarni to'lashni o'z zimmasiga oladi.
- 6.2. Majburiyatlarini buzgan taraf ushbu kelishuv va uning doirasida tuzilgan uch tarafdama faktoring shartnomasida ko'zda tutilgan javobgarlikka, qo'shimcha ravishda boshqa tarafga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 6.3. Mijoz (Qarzdor) bitim bo'yicha pul majburiyatlari lozim darajada bajarilishiga barcha mol-mulki, aktivlari va Mijoz tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlari to'liq yoki qisman bajarilmaganida haqiqiy qarzdorlik summasini undirishga qaratilishi mumkin bo'lgan banklardagi hamma hisobvaraqlaridagi mablag'lari, shuningdek, shartnoma bajarilishi bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan sud va boshqa xarajatlar uchun javobgar bo'lishini tasdiqlaydi va kafolat beradi.
- 6.4. Faktoring mablag'lari hisobidan amalga oshiralayotgan xalqaro tranzaksiyalar O'zbekiston Respublikasidan tashqarida boshqa davlatlar qonun hujjatlari doirasida to'xtatib yoki ishga solinmay (muzlatib) qo'yilganda bank javobgar hisoblanmaydi va bu mijozni majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

- 6.5. Garov predmeti sifatida taqdim etilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undiriladi va u ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinadi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).
- 6.6. Mijoz (Qarzdor)ning xorijiy valutada pul mabgʻlari olishga boʻlgan tanlovi va bunday tanlovga koʻra xorijiy valuta kursining oʻzgarishi natijasida xorijiy valutada olingan faktoring boʻyicha milliy valutadagi qarz yukining oshishi bilan bogʻliq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar Mijoz (Qarzdor)ning tavakkalchiligi hisoblanadi.
- 6.7. Taraflar tomonidan bir-biriga joʻnatiladigan har qanday xabarnoma, talabnoma yoki boshqa xatlar yozma yoki elektron imzo bilan tasdiqlangini holda elektron shaklda amalga oshirilishi shart. Bunday xabarnoma yoki xat pochta, xabarnomani olganini tasdiqlovchi buyurtma xat, faks, elektron manzil orqali pochta va elektron manzilga yoki shartnomada koʻrsatilgan faks raqamiga yoʻllangan xabarnomalar lozim darajada joʻnatilgan deb hisoblanadi. Pochta xabari/xati pochtdan koʻrsatilgan manzilda oluvchi shaxs yoʻqligi tufayli belgisi bilan qaytarilgan hollarda ham joʻnatilgan, deb hisoblanadi.
- 6.8. Taraflar uch taraflamalik faktoring shartnomalari va boshqa unga ilova qilinadigan hujjatlarni elektron raqamli imzolari bilan online platformasi orqali elektron shaklda tuzishlari mumkin. Ushbu elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjatlar qogʻoz shaklda imzolangan hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega boʻladi.
- 6.9. Mijoz va uning yetkazib beruvchisi bilan tuzilgan oʻzaro shartnomalarining yoki ular boʻyicha hisob fakturalarni har qanday shaklda bekor qilinishi yoki boshqa nizoli holatlarining vujudga kelishi ushbu kelishuv va uch taraflama tuzilgan faktoring shartnomalari boʻyicha Mijoz (Qarzdor)ni Moliya agenti oldida bajarishi lozim boʻlgan majburiyatlardan ozod etmaydi.
- 6.10. Bosh kelishuvni bajarilishida taraflar mazkur kelishuv shartlariga hamda Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

7. Bitim

bitimning kuchga kirishi, oʻzgartirish va bekor qilish tartibi

- 7.1 Mazkur kelishuv bir xil yuridik kuchga ega boʻlgan ikki nusxada tuzilib, bitimning bir nusxasi bankda, ikkinchi nusxasi Mijoz(Qarzdor)da saqlanadi. Mijoz(Qarzdor) yoki uning vakolatli vakiliga bitim imzolangan kunda uning bitta asl nusxasi taqdim etiladi.
- 7.2 Bosh kelishuv taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar toʻliq bajarilgunga qadar amal qiladi.
- 7.3 Bosh kelishuvga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi kelishuv yozma shaklda tuziladi va taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 7.4 Ushbu bosh kelishuv Mijoz tomonidan ushbu kelishuvdagi va faktoring shartnomasidagi majburiyatlar buzilgan taqdirda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Bunda taraflar javobgarligi ushbu kelishuvga asosan tuziladigan uch taraflama faktoring shartnomasi va fakatoring shartnomasiga qoʻshimcha ravishda ushbu kelishuv bilan tartibga solinadi.

8. Maxfiylik

- 8.1 Bitimni tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha maʼlumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.
- 8.2 Bitimni tuzish va undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chogʻida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va maʼlumotlarni ikkinchi taraf axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

- 8.3 Mazkur talab bitimning amal qilish muddatiga hamda uning muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.
- 8.4 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.
- 8.5 Moliya agneti o'z huquqlari va manfaatleri yoki ularni himoya qilish maqsadida Mijoz Moliya agentiga Mijoz to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.
- 8.6 Mijoz Moliya agentiga bitimda ko'rsatilgan yoki bitim tuzilishi va bajarilishida Moliya agentiga taqdim etilgan Mijozning barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur bitimga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, bitim bo'yicha huquqiy vorislik tartibida Moliya agentining huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi. Kafil va yoki mulkiy kafil bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish Mijozning qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va boshqa sirlarining buzilishi bo'lib hisoblanmasligiga mazkur bitimga binoan roziligini bildirgan hisoblanadi.

9. Fors-major

- 9.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (butun mamlakat hudida zilzila, ko'chki, bo'ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.
- 9.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.
- 9.3 Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

10. Nizolarni hal qilish tartibi

- 10.1 Taraflar mazkur kelishuvni bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.
- 10.2 O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.
- 10.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xatini tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 10.4 Kelishuv yo'li bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Moliya agentining BXO joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

11. Taraflarning qayd etish ma'lumotlari va imzolari

Moliya agenti:	Mijoz(Qarzdor) :
-----------------------	-------------------------

KI "Hamkorbank" ATB _____ bank xizmatlari ofisi il: : 00083 : 200242936 raqam: 16103000500000083001 markazi: 0 (800) 1-200-200, 1256 il: contact@hamkorbank.uz qaruvchi: _____	(Qarzdor) nomi: il: : : raqam: ari: hisobchi:
--	---